

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PREZIDENTI INSTITUTINING AHAMIYATI

Malikova Madina Maqsudjon qizi

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi "Yuridik xizmat" yo'nalishi

2-bosqich 22-22-guruh o'quvchisi

Telefon: +998330672020

madina.malikova2004@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10409629>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida prezidentlik institutining paydo bo'lishi, ushbu institutni takomillashtirishning huquqiy asoslari va jihatlari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: mustaqillik, prezident, o'zbek modeli, bir-birini tiyib turish, muvozanat saqlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari kafili.

**THE IMPORTANCE OF THE INSTITUTION OF THE PRESIDENT IN THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Abstract. This article will talk about the emergence, legal framework of the presidential Institute in the Republic of Uzbekistan and aspects of the improvement of this institute.

Key concepts: independence, president, Uzbek model, restraint, balance, guarantor of the rights and freedoms of citizens.

ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУТА ПРЕЗИДЕНТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В данной статье речь пойдет о возникновении института президентства в Республике Узбекистан, правовых основах и аспектах совершенствования данного института.

Ключевые понятия: независимость, президент, узбекская модель, сдержанность, баланс, гарантия прав и свобод граждан.

Ma'lumki, O'zbekiston sobiq ittifoq davlatlari ichida birinchi bo'lib Prezident lavozimini joriy qilgan hamda o'zbek modeli asosida zamonaviy prezidentlik institutiga asos solgan davlatlardan biri hisoblanadi. Mazkur lavozim O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1990 yilning 24 martida ta'sis etilib, mustaqil, demokratik davlat barpo etish borasida tashlangan ilk tarixiy qadamlardan biri edi deyish mumkin.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda demokratik rivojlanishning muhim talabi — "hokimiyatlar tizimida bir-birini tiyib turish va muvozanat saqlash" prinsipini amalga oshirishning

huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, prezidentlik institutining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini oshirish borasida izchil islohotlar amalga oshirildi.¹

Mamlakatimizda prezidentlik lavozimining ta'sis etilganiga o'ttiz uch yildan ko'proq vaqt o'tdi. Ushbu o'tgan davr davomida Respublikada davlat va jamiyat hayotida amalga oshirilgan islohotlar barobarida ushbu institutning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, davlat qurilishi va boshqaruvida o'ziga xos ahamiyati nuqtai nazaridan takomillashtirishga qaratilgan demokratik islohotlar olib borildi.

Zero mustaqillikka erishgandan so'ng milliy davlatchilik asoslarini shakllantirishga qaratilgan islohotlar natijasida siyosiy va iqtisodiy hayot, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini yana-da demokratlashtirish va erkinlashtirish, mustaqil sud tizimini, inson huquq va erkinliklarini munosib himoya qilish, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy faolligini yuksaltirish hamda fuqarolik jamiyatini barpo etishning mustahkam poydevori yaratildi.

Dastlab prezident davlat rahbari hamda ayni vaqtda ijro hokimiyatining boshlig'isi sifatida faoliyat yuritib kelgan va bu o'z vaqtida to'g'ri edi. Chunki o'sha paytlari davlat uchun demokratik islohotlar o'tkazish hamda fuqarolik institutlarini shakllantirish borasida kuchli ijro hokimiyatining mavjud bo'lishi talab etilar edi. 2007 yil 11 aprelda "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun hamda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to'g'risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)"gi Qonunning qabul qilinishi munosabati bilan davlat boshlig'i ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i, deyilgan norma olib tashlandi.

Dunyoda prezident lavozimi mavjud bo'lgan davlatlarni shartli ravishda 3 ga ajratilib, prezidentlik va parlamentar, aralash respublikalar degan tasniflash mavjud. Bunda asosiy mezonlardan biri bo'lib, prezidentning saylanish usuli hisoblanib, bevosita xalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylangan prezident kuchli vakolatlarga ega bo'ladi. Prezident to'g'ridan-to'g'ri saylanganda fuqarolar uning saylovoldi dasturi bilan bevosita tanishish, mamlakat va fuqarolarni qiziqtirayotgan masalalarga nomzodlar e'tiborini qaratish imkoniyati mavjuddir.²

¹ H.Tursunov. Prezidentlik institutining o'zbek modeli.<https://toshkent-vil.adliya.uz/qashqadaryo/uz/publikatsii/detail.php?ID=16254>

² M.Mirakulov. Prezidentlik institutining mohiyati va ahamiyati.
https://constitution.uz/uz/pages/Prezidentlik_instituti_

Ushbu yil ham mamlakatimiz uchun siyosiy jarayonlarga boy yil bo'ldi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrirda qabul qilindi hamda shunga mutanosib ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligi uchun demokratik ruhda saylov bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ³ ning 105-moddasida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi deb ko'rsatib qo'yildi.

Ushbu konstitutsion normadan kelib chiqib, O'zbekistondagi prezidentlik institutining o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, O'zbekistonda davlat boshlig'ining vakolatida fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etilishiga kafillik belgilanganligi, davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlashi, Prezident saylovi kuni Konstitutsiyada aniq belgilab qo'yilgani, saylov komissiyalarining a'zolari saylovdan manfaatdor biron bir partiya a'zosi, yoki nomzod, uning ishonchli vakili bo'lishi mumkin emasligi, Prezident saylovining moliyaviy ta'minoti davlat mablag'lari tomonidan qoplanishi va teng taqsimlanishi, nomzodlardan hech qanday saylov garovi, saylov fondini tashkil etish talab qilinmasligi, nomzodlarga saylovoldi tadbirlarini o'tkazish uchun davlat hisobidan teng e'fir vaqti va bosma maydon ajratilishi, yig'ilishlar va uchrashuvlar o'tkaziladigan vaqt hamda joy haqida saylovchilarga qonun hujjatlari talablari tartibida xabar qilinishi, davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalarning, muassasalarning, tashkilotlarning rahbarlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishni tashkil etishda, zarur ma'lumot va axborot materiallari olishda amaliy yordam ko'rsatishlari shartligi kabi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Konstitutsiyaning 106-moddasi bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga nomzodlik uchun qo'yiladigan talablarni o'zida mujassamlagan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023 y.

bilan yetti yil muddatga saylanadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidentini saylash tartibi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega, mamlakat ichida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish olib boradi.

So'zimiz intihosida ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizda prezidentlik instituti O'zbekistonni davlat mustaqilligiga erishishining asosiy omili bo'ldi, respublikamiz uchun suverenitet va davlatchilikda prinsip jihatdan yangi bosqichga o'tilishini bildirdi hamda prezidentlik instituti qaysidir ma'noda davlat mustaqilligi kafili hamda davlat ramziga aylandi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023 y.
2. 2007 yil 11 aprelda “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida”gi konstitutsiyaviy qonun hamda “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to'g'risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)”gi Qonuni.
3. H.Tursunov. Prezidentlik institutining o'zbek modeli.<https://toshkent-vil.adliya.uz/qashqadaryo/uz/publikatsii/detail.php?ID=16254>
4. M.Mirakulov. Prezidentlik institutining mohiyati va ahamiyati.
https://constitution.uz/uz/pages/Prezidentlik_instituti.

MODERN SCIENCE
& RESEARCH